Darsning maqsadi:

1. **Ta'limiy:** Ratsional sonlar ustida bajariladigan amallar xossalariga doir misollar yechish.
2. **Tarbiyaviy:** O`quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, komil inson sifatida voyaga yetishiga hissa qo`shish. Ajdodlarimiz buyuk me'rosi bilan o'quvchilarni tanishtirish
3. **Rivojlantiruvchi:** O`quvchilarning xotirasini shakllantirish, dunyoqarashini kengaytirish, ularni mantiqiy fikrlashga o'rgatish

Tayanch kompetensiyalar:

Axborot bilan ishlash kompetensiya elementi: mavzu doirasida ko'rsatilgan multimedia ilovalariga ongli munosabat bildirish.

Fanga oid kompetensiyalar: o'rganilgan matematik tushunchalarni va qoidalarni tushuntirib bera oladi, tegishli misollar keltira oladi;

Butun sonlarni o'qiy oladi, yoza oladi, taqqoslay oladi, tartibga sola oladi, koordinata o'qida, turli ko'rinishlarda va modellarda tasvirlay oladi;

Berilgan songa qarama-qarshi sonni, sonning modulini topa oladi, turli ko'rinishlarda va modellarda tasvirlay oladi.

Dars turi: olingan bilim, malaka, ko'nikmalarni rivojlantiruvchi

Dars jihozi: darslik, konspekt, ko'rgazmali qurollar, tarqatma materiallar

Tashkiliy qism:

1. Salomlashish
2. Navbatchi axborotini tinglash
3. O'tilgan mavzular yuzasidan savol-javob o'tkazish
4. Uy vazifalarini tekshirish

Asosiy qism

1074-misol.

$1)\ 3{,}45-7{,}35-2{,}65+2{,}65-7{,}1+8{,}3=3{,}45+2{,}65+8{,}3-7{,}35-2{,}65-7{,}1=-2{,}7$

$2)\ -4\frac{1}{3}-7\frac{2}{3}+2\frac{5}{9}-3\frac{4}{9}+1\frac{2}{9}+3\frac{5}{18}=-4\frac{1}{3}-7\frac{2}{3}-3\frac{4}{9}+2\frac{5}{9}+1\frac{2}{9}+3\frac{5}{18}=$

$=-14\frac{10}{9}+7\frac{19}{18}=-7\frac{1}{18}$

$3)\ 1{,}8-1\frac{3}{7}-2\frac{13}{14}+2{,}2-3{,}5+2\frac{17}{28}=4+2\frac{17}{28}-3{,}5-4\frac{5}{14}=\frac{1}{2}-2\frac{7}{28}=\frac{2}{4}-\frac{9}{4}=\frac{-7}{4}=-1\frac{3}{4}$

1076-misol.

-4-2,3=-6,3 -4+2,3=-1,7

1088-misol.

$1)\ \frac{5}{9}\cdot\left(-\frac{5}{9}\right)\cdot\left(-3\frac{3}{5}\right)\cdot\left(-2\frac{1}{4}\right)=-\frac{5\cdot5}{9\cdot9}\cdot\frac{2\cdot9}{5}\cdot\frac{9}{4}=\frac{5}{2}=2{,}5$

$2)\ -\frac{7}{12}\cdot\frac{5}{9}\cdot\left(-1\frac{2}{7}\right)\cdot\left(-\frac{8}{15}\right)=-\frac{7}{12}\cdot\frac{5}{9}\cdot\frac{9}{7}\cdot\frac{8}{15}=-\frac{2}{9}$

Mustahkamlash:

1089-misol.

1) $2{,}6\cdot\left(-\frac{5}{7}\right)\cdot(-1{,}4)\cdot\left(-\frac{3}{13}\right)=-\frac{26}{10}\cdot\frac{5}{7}\cdot\frac{14}{10}\cdot\frac{3}{13}=-\frac{3}{5}$

2) $-3{,}6\cdot\frac{5}{11}\cdot\left(-\frac{3}{4}\right)\cdot(-2{,}2)=-\frac{18}{5}\cdot\frac{5}{11}\cdot\frac{3}{4}\cdot\frac{11}{5}=-\frac{27}{10}=-2{,}7$

1090-misol.

1) $1\frac{3}{7}\cdot\left(-\frac{3}{8}\right)\cdot\left(-\frac{7}{10}\right)=\frac{10}{7}\cdot\frac{7}{10}\cdot\frac{3}{8}=\frac{3}{8}$

2) $-\frac{5}{9}\cdot\frac{3}{7}\cdot\left(-2\frac{1}{3}\right)=\frac{5}{9}\cdot\frac{3}{7}\cdot\frac{7}{3}=\frac{5}{9}$

3) $\frac{5}{23}\cdot\left(-\frac{7}{16}\right)\cdot\left(-4\frac{3}{5}\right)=\frac{5}{23}\cdot\frac{7}{16}\cdot\frac{23}{5}=\frac{7}{16}$

Baholash:

Uyga vazifa: 1109-1110-misol.

132-Mavzu: Nazorat ishi-11

Darsning maqsadi:

1. **Ta’limiy:** O’quvchilar olgan BKMlarni nazorat qilish
2. **Tarbiyaviy:** O`quvchilarda mas’uliyat hissini rivojlantirish
3. **Rivojlantiruvchi:** O`quvchilarni mustaqil fikrlashga o’rgatish

Tayanch kompetensiyalar:

Axborot bilan ishlash kompetensiya elementi: mavzu doirasida ko’rsatilgan multimedia ilovalariga ongli munosabat bildirish.

Fanga oid kompetensiyalar: o‘rganilgan matematik tushunchalarni va qoidalarni tushuntirib bera oladi, tegishli misollar keltira oladi;

Butun sonlarni o‘qiy oladi, yoza oladi, taqqoslay oladi, tartibga sola oladi, koordinata o‘qida, turli ko‘rinishlarda va modellarda tasvirlay oladi;

Berilgan songa qarama-qarshi sonni, sonning modulini topa oladi, turli ko‘rinishlarda va modellarda tasvirlay oladi.

Dars turi: olingan BKMlarni nazorat qiluvchi
Dars jihozi: darslik, konspekt, yozma ish materiallari

Tashkiliy qism:

1. Salomlashish
2. Navbatchi axborotini tinglash
3. Yozma ish daftarlarini tarqatish

Asosiy qism

I variant

1) Ratsional sonlar ustida guruhlash xossasini qo’llab hisoblang:
$2\frac{1}{8}\cdot\left(-3\frac{1}{4}\right)\cdot\left(-\frac{8}{17}\right)$

2) Ko’paytirishning qo’shishga nisbatan taqsimot qonunini qo’’lab hisoblang:
$a)\ 8{,}7\cdot 9{,}3+10{,}7\cdot 8{,}7$ $b)\ -\frac{13}{17}\cdot 15+\left(-\frac{13}{17}\right)\cdot 2$

3) Tengsizlikni qanoatlantiruvchi sonlarning eng kichigini eng kattasiga bo’ling:
$-9\le x\le -3{,}6$

4) Tenglamani yeching: x:8=-36:(-9)

II variant

1) Ratsional sonlar ustida guruhlash xossasini qo’llab hisoblang:

$3\frac{1}{3}\cdot\left(-7\frac{1}{2}\right)\cdot\left(-\frac{3}{10}\right)$

2) Ko’paytirishning qo’shishga nisbatan taqsimot qonunini qo’’lab hisoblang:

a) $6{,}3\cdot 3{,}9+6{,}1\cdot 6{,}3$ *b*) $-\frac{5}{19}\cdot 13+\left(-\frac{5}{19}\right)\cdot 6$

3) Tengsizlikni qanoatlantiruvchi sonlarning eng kichigini eng kattasiga bo’ling: $-27\leq x\leq -4{,}5$

4) Tenglamani yeching: x:7=-24:(-6)

Baholash:
Uyga vazifa: takrorlash

Fani: Matematika Sinfi: VI Sana: Dars raqami: 133

I. Darsning mavzusi. Qavslarni ochish qoidasi

II. Darsning maqsadi:

a) Ta’limiy maqsad: o’quvchilarga qavslarni ochish qoidasini o’rgatish

b) Tarbiyaviy maqsad: o’quvchi shaxsini kamol toptirish

c) Rivojlantiruvchi maqsad: o’quvchilarni ratsional sonlar ustida bajariladigan amallar hossalari haqidagi bilimlarini rivojlantirish.

d) Kasbga yo’naltiruvchi maqsad: o’quvchilarni kasbga to’g’ri yo’naltirish

Bilimlar:

- Qavslarni ochish qoidasini bilish

Ko’nikmalar:

- Qavslarni ochish qoidasini amaliyotga qo’llay olish

Malakalar:

- Qavslarni ochish qoidasini amaliyotga mustaqil qo’llay olish

Kompetensiya turi. O’quv-o’rganish

III. Darsni jihozi. Yozuv taxtasi, bo’r ,6-sinf Matematika darsligi,ko’rgazmali qurollar,turli rangdagi kartochkalar

IV. Darsni metodi: Aralash, Guruhlarda ishlash,Bayon qilish

V. Darsni borishi:

Manfiy sonlarning kiritilishi $-8-3$; $18-5$; $-3+8-9$ kabi ifodalarni yig‘indi ko‘rinishida yozish imkoniyatini beradi. Haqiqatan ham:

$$-8-3=(-8)+(-3);\ 18-5=18+(-5);\ -3+8-9=(-3)+8+(-9).$$

Har qanday n sonni 1 ga ko‘paytirsak, yana n sonning o‘zi chiqadi:

$$n\cdot 1=1\cdot n=n.$$

$+1=1$ bo‘lgani uchun $-3+8-9$ ifodani quyidagicha yozish mumkin:

$$-3+8-9=(+1)\cdot(-3)+(+1)\cdot 8+(+1)\cdot(-9)=(+1)\cdot(-3+8-9)=$$
$$=+1\cdot(-3+8-9)=+(-3+8-9).$$

Shunday qilib, $+(-3+8-9)=-3+8-9$.

Oxirgi tenglikning chap qismidagi qo‘shiluvchilar qavslarga olingan. Tenglikning o‘ng qismida esa qavslar va qavs oldidagi « + » ishorasi yo‘q, ular tushirib qoldirilgan. Bunday almashtirishni **qavslarni ochish** deymiz. Qo‘shiluvchilarning ishoralari o‘zgarmay qolganiga e’tibor bering.

Agar yig‘indi qavslarga olingan bo‘lib, qavs oldida « + » ishorasi turgan bo‘lsa, u holda qavslarni ochishda qo‘shiluvchilarning ishoralari o‘zgarmaydi. Qavslar ichidagi 1- qo‘shiluvchining ishorasi yozilmagan bo‘lsa, bu qo‘shiluvchini « + » ishora bilan yozish kerak.

Masalan: 1) $+(-10+8-12)=-10+8-12=-14$;
2) $-2{,}8+(2{,}8-7{,}63)=-2{,}8+2{,}8-7{,}63=-7{,}63$;
3) $+(-5+7)+(3{,}2-0{,}8)=-5+7+3{,}2-0{,}8=4{,}4$.

Agar yig‘indini qavslarga olib, qavs oldiga « + » ishorasi qo‘yilsa, u holda qavsga olingan qo‘shiluvchilarning ishoralari o‘zgarishsiz qoldiriladi.

Masalan, $-13+8-2=+(-13+8-2)$.

Taqsimot qonuni va $-n=(-1)\cdot n$ tenglikdan foydalanib, oldida «–» ishorasi turgan qavslarni ham ochish mumkin.

Misollar: 1) $-(3-9)=(-1)\cdot(3-9)=(-1)\cdot 3+(-1)\cdot(-9)=-3+9$;
2) $-(18-5)=(-1)\cdot(18-5)=(-1)\cdot 18+(-1)\cdot(-5)=-18+5$.

VI. Darsni mustaxkamlash: 1116-1119 –mashqlar sinfda yechiladi

VII. Uyga vazifa. 1130-1132- mashqlar

Fani: Matematika Sinfi: VI Sana: Dars raqami: 134

I. Darsning mavzusi. Mashq yechish.

II. Darsning maqsadi:

a) Ta’limiy maqsad: o’quvchilar olgan nazariy bilimlarini amaliyotda tatbiq eta olish

b) Tarbiyaviy maqsad: o’quvchi shaxsini kamol toptirish

c) Rivojlantiruvchi maqsad: : o’quvchilarni ratsional sonlar ustida bajariladigan amallar hossalari haqidagi bilimlarini rivojlantirish.

d) Kasbga yo’naltiruvchi maqsad: o’quvchilarni kasbga to’g’ri yo’naltirish

Bilimlar:

- Qavslarni ochish qoidasini bilish

Ko’nikmalar:

- Qavslarni ochish qoidasini amaliyotga qo’llay olish

Malakalar:

- Qavslarni ochish qoidasini amaliyotga mustaqil qo’llay olish

Kompetensiya turi. Bilimlarni amaliyotda qo’llash

III. Darsni jihozi. Yozuv taxtasi, bo’r ,6-sinf Matematika darsligi,ko’rgazmali qurollar,turli rangdagi kartochkalar
IV. Darsni metodi: Amaliy mashg’ulot
V. Darsni borishi:

1120. Qavslarni oching va hisoblang:

1) (219 + 511) – (–89 + 219);
2) (625 + 139) – (325 + 139);
3) (218 – 425) – (18 – 435);
4) –(29 + 109) – (378 – 78).

1) 219 +511 +89 -219= 600;

2) 625 + 139 -325 -139= 300;

3) 218 -425 -18 +435= 200 +10 =210;

4) -29 -109 -378 +78 = -138 -300= - 438.

1121. «?» belgilari o‘rniga mos sonlarni yozing:

1) 10 $\xrightarrow{\cdot\ ?}$ –50 $\xrightarrow{-\ ?}$ 20 $\xrightarrow{+\ ?}$ –20 $\xrightarrow{:\ ?}$ 5

2) ? $\xrightarrow{:\ (-3)}$ 7 $\xrightarrow{\cdot\ (-5)}$? $\xrightarrow{-\ (-10)}$? $\xrightarrow{+\ (-20)}$?

1) $10 \cdot (-5) - (-70) + (-90) : (-18) = 5;$

2) -21:(-3) $\cdot (-5) - (-10) + (-20) = -45.$

1122. Ifodaning qiymatini qavslarni ochib hisoblang:

1) (20 – (–6)) – (15 – (–12));
2) –29 – (18 – 74) – (74 – 19);
3) –(–65) – (–55 – 39) – (–34);
4) –48 – (–22) – (–34 – (–3)).

1) 20+6 -15 -12 = -1;

2) -29 -18+74-74+19= -28;

3) 65 +55+39+34= 183;

4) -48 +22 +34 -3= 11.

VI. Darsni mustaxkamlash: 1120-1126 –mashqlar sinfda yechiladi
VII. Uyga vazifa. 1133-1135- mashqlar

Fani: Matematika Sinfi: VI Sana: Dars raqami: 135

I. Darsning mavzusi. Koeffitsiyent

II. Darsning maqsadi:

a) Ta’limiy maqsad: o’quvchilarga koeffitsiyent nimaligini o’rgatish

b) Tarbiyaviy maqsad: o’quvchi shaxsini kamol toptirish

c) Rivojlantiruvchi maqsad: : o’quvchilarni ratsional sonlar ustida bajariladigan amallar hossalari haqidagi bilimlarini rivojlantirish.

d) Kasbga yo’naltiruvchi maqsad: o’quvchilarni kasbga to’g’ri yo’naltirish

Bilimlar:

- Koeffitsiyent tushunchasini nimaligini bilish

Ko’nikmalar:

- Ifodaning koeffitsiyentini topa olish

Malakalar:

- Ifodaning koeffitsiyentini mustaqil topa olish
Kompetensiya turi. O'quv-o'rganish
III. Darsni jihozi. Yozuv taxtasi, bo'r ,6-sinf Matematika darsligi,ko'rgazmali qurollar,turli rangdagi kartochkalar
IV. Darsni metodi: Aralash, Guruhlarda ishlash,Bayon qilish
V. Darsni borishi:

1-misol. $5 \cdot a \cdot \left(-\frac{4}{15}\right) \cdot b \cdot 7$ ifodani soddalashtiring.

Yechish. Ifodani soddalashtirish deganda ko'rsatilgan amallarni bajarib, uni berilganiga qaraganda iloji boricha ixchamroq, qisqaroq ko'rinishda yozib olish tushuniladi.

Berilgan ifodani soddalashtirish uchun:
1-qadam: son ko'paytuvchilar alohida guruhlanadi va ularning ko'paytmasi topiladi;
2-qadam: harfiy ko'paytuvchilar (berilgan misolda *a* va *b*) ham alohida guruhlanadi;
3-qadam: son ko'paytuvchi harflar oldiga yoziladi.

Shunday qilib,

$$5 \cdot a \cdot \left(-\frac{4}{15}\right) \cdot b \cdot 7 = \left(5 \cdot \left(-\frac{4}{15}\right) \cdot 7\right) \cdot (a \cdot b) = -\frac{28}{3} \cdot a \cdot b.$$

Natija berilgan ifodaga nisbatan sodda ko'rinishga ega bo'ldi.

Javob: $-\frac{28}{3} \cdot a \cdot b.$

Harf oldida turgan son ko'paytuvchi *koeffitsiyent* deyiladi.

Demak, $-\frac{28}{3} \cdot a \cdot b$ ifodada $-\frac{28}{3}$ son koeffitsiyentdir.

***a* ifodaning koeffitsiyenti 1 ga teng, chunki $1 \cdot a = a$.**
$-a$ ifodaning koeffitsiyenti esa -1 ga teng, chunki $-1 \cdot a = -a$.

Odatda, yozuvni qisqaroq qilish uchun:
1) ifodaning koeffitsiyenti 1 bo'lsa, bu koeffitsiyent yozilmaydi;
2) ifodaning koeffitsiyenti – 1 bo'lsa, u ifoda oldiga « – » ishorasi qo'yiladi, xolos;
3) ko'paytmada koeffitsiyent bilan harf va harflar orasiga ko'paytirish amali belgisi (ya'ni « · » belgi) yozilmaydi.

Masalan, $1 \cdot a \cdot b \cdot (-1) \cdot d$ o'rniga $-abd$ yoziladi, ya'ni

$$1 \cdot a \cdot b \cdot (-1) \cdot d = -abd.$$

VI. Darsni mustaxkamlash: 1136-1141 –mashqlar sinfda yechiladi
VII. Uyga vazifa. 1150-1151- mashqlar

Fani: Matematika Sinfi: VI Sana: Dars raqami: 136

I. Darsning mavzusi. Mashq yechish.

II. Darsning maqsadi:

a) Ta'limiy maqsad: o'quvchilar olgan nazariy bilimlarini amaliyotda tatbiq eta olish

b) Tarbiyaviy maqsad: o'quvchi shaxsini kamol toptirish

c) Rivojlantiruvchi maqsad: : o'quvchilarni ratsional sonlar ustida bajariladigan amallar hossalari haqidagi bilimlarini rivojlantirish.

d) Kasbga yo'naltiruvchi maqsad: o'quvchilarni kasbga to'g'ri yo'naltirish

Bilimlar:

- Koeffitsiyent tushunchasini nimaligini bilish

Ko'nikmalar:

- Ifodaning koeffitsiyentini topa olish

Malakalar:

- Ifodaning koeffitsiyentini mustaqil topa olish

Kompetensiya turi. Bilimlarni amaliyotda qo'llash

III. Darsni jihozi. Yozuv taxtasi, bo'r ,6-sinf Matematika darsligi,ko'rgazmali qurollar,turli rangdagi kartochkalar

IV. Darsni metodi: Amaliy mashg'ulot

V. Darsni borishi:

1142. Ifodaning koeffitsiyentini toping:

1) $0{,}8a \cdot 1{,}5$; 3) $-4{,}5 \cdot (-1{,}2x)$; 5) $-2y \cdot (-3{,}54)$;

2) $\frac{2}{3}a \cdot \left(-1\frac{2}{7}b\right) \cdot \left(-1\frac{3}{4}\right)$; 4) $-a \cdot (-b) \cdot (-c)$; 6) $\frac{14}{15}x \cdot \frac{3}{28}y$.

1) 1,2a; Javob: 1,2; 3) 5,4x; Javob: 5,4;

2) Javob: 1,5;

4) abc; Javob: 1; 5) 7,084y; Javob: 7,084;

6) $\frac{14x}{15} \cdot \frac{3y}{28} = \frac{xy}{10} = 0{,}1xy$; Javob: 0,1

1143. Ifodani soddalashtiring va koeffitsiyentining tagiga chizing:

1) $-3,8a \cdot (-1,5b) \cdot (-1,6c)$; 3) $-1\frac{1}{3}x \cdot \left(-2\frac{1}{4}y\right) \cdot 3,5$;

2) $-2a \cdot (-2,5b) \cdot 2\frac{3}{5}c$; 4) $\frac{5}{8}a \cdot \left(-\frac{8}{15}b\right) \cdot \left(-\frac{3}{7}c\right)$.

1) $-3,8 \cdot 1,5 \cdot 1,6abc = -9,12\ abc$; Javob: - 9,12;

2) $2 \cdot 2,5 \cdot 2,6abc = 13abc$; Javob: 13;

3) Javob: 1,5;

4) $abc = \frac{abc}{7}$; Javob:

VI. Darsni mustaxkamlash: 1142-1149 –mashqlar sinfda yechiladi
VII. Uyga vazifa. 1152-1153- mashqlar

Fani: Matematika Sinfi: VI Sana: Dars raqami: 137
I. Darsning mavzusi. O'xshash hadlar va ularni ixchamlash

II. Darsning maqsadi:
a) Ta'limiy maqsad: o'quvchilarga o'xshash hadlar va ularni ixchamlash nimaligini o'rgatish
b) Tarbiyaviy maqsad: o'quvchi shaxsini kamol toptirish
c) Rivojlantiruvchi maqsad: o'quvchilarni ifodalarni soddalashtirish haqidagi bilimlarini rivojlantirish.
d) Kasbga yo'naltiruvchi maqsad: o'quvchilarni kasbga to'g'ri yo'naltirish

Bilimlar:
- O'xshash hadlar va ularni ixchamlash nimaligini bilish
Ko'nikmalar:
- O'xshash hadlar va ularni ixchamlay olish
Malakalar:
- O'xshash hadlar va ularni ixchamlashga doir mashqlarni mustaqil bajara olish
Kompetensiya turi. O'quv-o'rganish

III. Darsni jihozi. Yozuv taxtasi, bo'r ,6-sinf Matematika darsligi,ko'rgazmali qurollar,turli rangdagi kartochkalar
IV. Darsni metodi: Aralash, Guruhlarda ishlash,Bayon qilish
V. Darsni borishi:

Misol. $8a-6a-4a$ ifodani soddalashtiring.

Yechish. Bu ifodani yig'indi shaklida yozib olish mumkin:

$$8a-6a-4a=8a+(-6a)+(-4a),$$

demak, uning hadlarini qo'shiluvchilar desak bo'laveradi.

Bu misoldagi $8a$, $-6a$, $-4a$ qo'shiluvchilar bir xil harfiy ko'paytuvchiga ega, **ular bir-biridan faqat koeffitsiyenti bilangina farq qiladi. Bunday qo'shiluvchilar *o'xshash hadlar* deyiladi.**

Taqsimot qonuniga muvofiq umumiy ko'paytuvchi a ni qavsdan tashqariga chiqarish mumkin:

$$8a-6a-4a=(8-6-4)a=-2a.$$

Javob: $-2a$.

Shunday qilib, berilgan $8a-6a-4a$ ifoda unga teng bo'lgan sodda ko'rinishdagi ifoda bilan almashtirildi. Buning uchun:

1-qadam: o'xshash hadlarning koeffitsiyentlari qo'shildi;
2-qadam: natija umumiy harfiy ko'paytuvchiga ko'paytirildi.

Ifodani bunday soddalashtirish ***o'xshash hadlarni ixchamlash*** deyiladi.

Ko'paytirishning $(a+b)\cdot c=ac+bc$ taqsimot xossasi ixtiyoriy a, b va c sonlar uchun o'rinli ekanini bilasiz.

$(a+b)\cdot c$ ifodani $ac+bc$ yoki $c\cdot(a+b)$ ifodani $ca+cb$ ifoda bilan almashtirish ham ***qavslarni ochish*** deyiladi.

$ac+bc$ ifodani $(a+b)\cdot c$ yoki $c\cdot(a+b)$ ifoda bilan almashtirish umumiy ko'paytuvchi c ni ***qavsdan tashqariga chiqarish*** deyiladi.

VI. Darsni mustaxkamlash: 1154-1157 –mashqlar sinfda yechiladi

VII. Uyga vazifa. 1169-1170- mashqlar

Fani: Matematika Sinfi: VI Sana: Dars raqami: 138

I. Darsning mavzusi. Mashq yechish.

II. Darsning maqsadi:

a) Ta'limiy maqsad: o'quvchilar olgan nazariy bilimlarini amaliyotda tatbiq eta olish

b) Tarbiyaviy maqsad: o'quvchi shaxsini kamol toptirish

c) Rivojlantiruvchi maqsad: o'quvchilarni o'xshash hadlar va ularni ixchamlash haqidagi bilimlarini rivojlantirish.

d) Kasbga yo'naltiruvchi maqsad: o'quvchilarni kasbga to'g'ri yo'naltirish

Bilimlar:

- O'xshash hadlar va ularni ixchamlash nimaligini bilish

Ko'nikmalar:

- O'xshash hadlar va ularni ixchamlay olish

Malakalar:

- O'xshash hadlar va ularni ixchamlashga doir mashqlarni mustaqil bajara olish

Kompetensiya turi. Bilimlarni amaliyotda qo'llash

III. Darsni jihozi. Yozuv taxtasi, bo'r ,6-sinf Matematika darsligi,ko'rgazmali qurollar,turli rangdagi kartochkalar

IV. Darsni metodi: Amaliy mashg'ulot

V. Darsni borishi:

1158. 1) $-8a-5a+7a+2a$; 3) $21b-10b+9b-12b$;

2) $-5x+6x-3x+7x$; 4) $15x-7x+9x-3x$.

1) (-8 -5 +7 +2)a= -4a;

2) (-5 +6 -3 +7)x= 5x;

3) (21 -10 +9 -12)b= 8b;

4) (15 -7 +9 -3)x= 14x.

1159. 1) $-1,8m+2,8m-4,5m-2,9m$; 3) $1\frac{4}{9}z-3\frac{5}{9}z+2\frac{7}{9}z-2\frac{2}{9}z$;

2) $1,3n-4,3n-5,7n-2,9n$; 4) $2\frac{1}{7}y+1\frac{4}{7}y-4\frac{5}{7}y-3\frac{5}{7}y$.

$13/9 - 32/9 + 25/9 - 20/9)z = -4/9$;

1) (-1,8 +2,8 -4,5 -2,9) m= -6,4m; 3) (

$15/7 + 11/7 - 33/7 - 26/7)y = - 33/7$;

2) (1,3 -4,3 -5,7 -2,9)n= -9,6n; 4) (

1160. 1) $18a - 13b + 2a + 3b$; 3) $-8x + 3{,}5y + 3x + 1{,}5y$;

2) $6a + 7a - 9{,}24b + 2{,}24b$; 4) $\frac{5}{7}x - \frac{7}{11}y - \frac{4}{7}x + \frac{3}{11}y$.

1) (18+2)a +(-13 +3)b= 20a -10b; 3) (-8 +3)x + (3,5 +1,5)y= -5x + 5y;

2) (6+7)a + (-9,24 +2,24)b= 13a -7b; 4)

1161. 1) $-a + b + 1{,}4a - 1{,}4b$; = 0,4a -0,4b;

2) $-3{,}8a - 4{,}2b + 1{,}9a + 2{,}3b$; = -1,9a -19b;

VI. Darsni mustaxkamlash: 1158-1163 –mashqlar sinfda yechiladi
VII. Uyga vazifa. 1171-1172- mashqlar

Fani: Matematika Sinfi: VI Sana: Dars raqami: 139

I. Darsning mavzusi. Mashq yechish.
II. Darsning maqsadi:
a) Ta’limiy maqsad: o’quvchilar olgan nazariy bilimlarini amaliyotda tatbiq eta olish
b) Tarbiyaviy maqsad: o’quvchi shaxsini kamol toptirish
c) Rivojlantiruvchi maqsad: o’quvchilarni o’xshash hadlar va ularni ixchamlash haqidagi bilimlarini rivojlantirish.
d) Kasbga yo’naltiruvchi maqsad: o’quvchilarni kasbga to’g’ri yo’naltirish
Bilimlar:
- O’xshash hadlar va ularni ixchamlash nimaligini bilish
Ko’nikmalar:
- O’xshash hadlar va ularni ixchamlay olish
Malakalar:

- O’xshash hadlar va ularni ixchamlashga doir mashqlarni mustaqil bajara olish
Kompetensiya turi. Bilimlarni amaliyotda qo’llash
III. Darsni jihozi. Yozuv taxtasi, bo’r ,6-sinf Matematika darsligi,ko’rgazmali qurollar,turli rangdagi kartochkalar
IV. Darsni metodi: Amaliy mashg’ulot
V. Darsni borishi:

1164. Tenglamani yeching:

1) $3\cdot(3x+5)-4\cdot(3x-5)=0;$

2) $-7\cdot(2x-3)+5\cdot(3x-2)=0.$

1) 9x +15 -12x +20=0

-3x= -35

x= 35:3= ; Javob: x=

2) -14x +21 +15x -10 =0

x= -11; Javob: x= -11.

1165. Ko‘paytirishning taqsimot xossasini qo‘llab, ifodaning qiymatini toping:

1) $17\cdot679+17\cdot321;$ 3) $9{,}76\cdot3{,}41+6{,}59\cdot9{,}76;$

2) $2\frac{1}{7}\cdot3\frac{5}{9}+6\frac{6}{7}\cdot3\frac{5}{9};$ 4) $4\frac{7}{11}\cdot3\frac{8}{13}-4\frac{7}{11}\cdot2\frac{8}{13}.$

1) 17(679 +321) = 17 $\cdot$ 1000 = 17 000; 3) 9,76(3,41 + 6,59) = 9,76 $\cdot$ 10 = 97,6;

2) 4) 0

VI. Darsni mustaxkamlash: 1164-1168 –mashqlar sinfda yechiladi

VII. Uyga vazifa. 1173-1175- mashqlar

Fani: Matematika Sinfi: VI Sana: Dars raqami: 140

I. Darsning mavzusi. Tenglamalarni yechish
II. Darsning maqsadi:
a) Ta’limiy maqsad: o’quvchilarga tenglamalarni “al-jabr val-muqobala” usuli bilan yechishni o’rgatish
b) Tarbiyaviy maqsad: o’quvchi shaxsini kamol toptirish

c) Rivojlantiruvchi maqsad: o'quvchilarni o'xshash hadlar va ularni ixchamlash haqidagi bilimlarini rivojlantirish.

d) Kasbga yo'naltiruvchi maqsad: o'quvchilarni kasbga to'g'ri yo'naltirish

Bilimlar:

- Bir noma'lumli tenglama va uning ildizlari haqida tushunchaga ega bo'lish

Ko'nikmalar:

- Bir noma'lumli tenglamalarni yecha olish

Malakalar:

- Bir noma'lumli tenglamalarni mustaqil yecha olish

Kompetensiya turi. O'quv-o'rganish

III. Darsni jihozi. Yozuv taxtasi, bo'r ,6-sinf Matematika darsligi,ko'rgazmali qurollar,turli rangdagi kartochkalar

IV. Darsni metodi: Aralash, Guruhlarda ishlash,Bayon qilish

V. Darsni borishi:

1-masala. Uchburchakning bir tomoni ikkinchi tomonidan 3 sm qisqa, uchinchi tomonidan esa 2 sm uzun. Agar uchburchakning perimetri 52 sm bo'lsa, uning tomonlari uzunligini toping.

Yechish. Uchburchakning bir tomonini x sm deylik. U holda uning ikkinchi tomoni $(x + 3)$ sm, uchinchi tomoni esa $(x - 2)$ sm bo'ladi. Masala shartiga muvofiq:

$$x + (x + 3) + (x - 2) = 52.$$

Bu ifodani ixchamlab $3x + 1 = 52$ tenglamaga kelamiz, bunda x — noma'lum son, ya'ni uchburchakning birinchi tomoni uzunligi.

Tenglamadagi $3x$, 1, 52 ifodalar ***tenglamaning hadlari*** deyiladi. Noma'lum x qatnashmagan hadlar 1 va 52 — tenglamaning ***ozod hadlari*** deyiladi.

Bu tenglama shunday yechiladi:

1) $3x + 1 = 52$ tenglikning har ikkala qismiga (-1) sonini qo'shamiz:

$3x + 1 + (-1) = 52 + (-1)$, bundan $3x = 52 - 1$, chunki $1 + (-1) = 0$. $3x = 52 - 1$ tenglik $3x + 1 = 52$ tenglamaning chap qismidagi $+1$ qo'shiluvchi qarama-qarshi ishora bilan («-1 bo'lib») tenglamaning o'ng qismiga o't-ganini bildiradi. Natijada $3x = 51$ tenglama hosil bo'ladi.

2) $3x = 51$ tenglamaning har ikkala qismini 3 ga bo'lamiz:

$3x : 3 = 51 : 3$, bundan $x = 17$ (sm).

U holda uchburchakning tomonlari 17 sm, 20 sm, 15 sm bo'ladi.

Tekshirish: $17 + 3 = 20$, $15 + 2 = 17$, $17 + 20 + 15 = 52$.

Javob: 17 sm, 20 sm, 15 sm.

1- masala shartiga mos keluvchi tenglamani yechish jarayonidan shunday xulosaga kelamiz:

1-xossa. Tenglamadagi istalgan hadni uning ishorasini qarama-qarshisiga o'zgartirib, tenglamaning bir qismidan ikkinchi qismiga o'tkazish mumkin.

2-xossa. Tenglamaning barcha hadlarini nolga teng bo'lmagan ayni bir songa ko'paytirish yoki bo'lish mumkin.

Bu xossalar **tenglamaning asosiy xossalaridir**. Ularni qo'llash tenglama ildizini o'zgartirmaydi.

VI. Darsni mustaxkamlash: 1176-1180 –mashqlar sinfda yechiladi

VII. Uyga vazifa. 1199-1200- mashqlar

Fani: Matematika Sinfi: VI Sana: Dars raqami: 141

I. Darsning mavzusi. Mashq yechish.

II. Darsning maqsadi:

a) Ta'limiy maqsad: o'quvchilar olgan nazariy bilimlarini amaliyotda tatbiq eta olish

b) Tarbiyaviy maqsad: o'quvchi shaxsini kamol toptirish

c) Rivojlantiruvchi maqsad: o'quvchilarni o'xshash hadlar va ularni ixchamlash haqidagi bilimlarini rivojlantirish.

d) Kasbga yo'naltiruvchi maqsad: o'quvchilarni kasbga to'g'ri yo'naltirish

Bilimlar:

- Bir noma'lumli tenglama va uning ildizlari haqida tushunchaga ega bo'lish

Ko'nikmalar:

- Bir noma'lumli tenglamalarni yecha olish

Malakalar:

- Bir noma'lumli tenglamalarni mustaqil yecha olish

Kompetensiya turi. Bilimlarni amaliyotda qo'llash

III. Darsni jihozi. Yozuv taxtasi, bo'r ,6-sinf Matematika darsligi,ko'rgazmali qurollar,turli rangdagi kartochkalar

IV. Darsni metodi: Amaliy mashg'ulot

V. Darsni borishi:

1181. Ikkita ketma-ket kelgan natural sonlar yig'indisi 821 ga teng. Shu sonlarni toping.

Yechish: $x + x+1= 821$

$2x= 821-1$

$x= 820 :2$

$x=410$

Javob: 410; 411.

1182. Ikkita ketma-ket kelgan toq sonlar yig'indisi 452 ga teng. Shu sonlarni toping.

Yechish: $2x-1 + 2x+1= 452$

$4x= 452$

$x= 452 :4$

$x= 113;$

Javob: 225;227.

1183. Ikkita ketma-ket kelgan juft sonlar yig'indisi 4026 ga teng. Shu sonlarni toping.

$2x + 2x+2= 4026$

$4x= 2026-2$

$4x= 2024$

$x= 4024:4$

$x= 1006$

Javob: 1006; 1008.

1184. 3 ga bo‘linadigan ikkita ketma-ket kelgan natural sonlar yig‘indisi 1 569 ga teng. Shu sonlarni toping.

Yechish: 3x +3x+3= 1569; 6x= 1569-3; 6x= 1563 ; x= 1563:3; x= 521

Javob: 1563; 1566

VI. Darsni mustaxkamlash: 1181-1187 –mashqlar sinfda yechiladi

VII. Uyga vazifa. 1201-1203- mashqlar

Fani: Matematika Sinfi: VI Sana: Dars raqami: 142

I. Darsning mavzusi. Mashq yechish.

II. Darsning maqsadi:

a) Ta’limiy maqsad: o’quvchilar olgan nazariy bilimlarini amaliyotda tatbiq eta olish

b) Tarbiyaviy maqsad: o’quvchi shaxsini kamol toptirish

c) Rivojlantiruvchi maqsad: o’quvchilarni tenglamalar va ularni yechish haqidagi bilimlarini rivojlantirish.

d) Kasbga yo’naltiruvchi maqsad: o’quvchilarni kasbga to’g’ri yo’naltirish

Bilimlar:

- Bir noma’lumli tenglama va uning ildizlari haqida tushunchaga ega bo’lish

Ko’nikmalar:

- Bir noma’lumli tenglamalarni yecha olish

Malakalar:

- Bir noma’lumli tenglamalarni mustaqil yecha olish

Kompetensiya turi. Bilimlarni amaliyotda qo’llash

III. Darsni jihozi. Yozuv taxtasi, bo’r ,6-sinf Matematika darsligi,ko’rgazmali qurollar,turli rangdagi kartochkalar

IV. Darsni metodi: Amaliy mashg’ulot

V. Darsni borishi:

1188. Uchta sonning yig‘indisi 270 ga teng. Bu sonlarning nisbati 3 : 2 : 4 kabi. Har bir son nechaga teng?

Yechish: 3x+2x +4x= 270

9x= 270

x= 270:9

x= 30

$3\cdot 30 = 90$; $2\cdot 30 = 60$; $4\cdot 30 = 120$;

Javob: 90; 60; 120.

1189. Uchta shkafda jami 253 ta kitob bor. Birinchi shkafda: ikkinchisiga qaraganda 11 ta ortiq, uchinchisiga qaraganda esa 6 ta kam kitob bor. Har bir shkafda nechtadan kitob borligini toping.

Yechish: I- da x ta ; II-da x-11 ta; III –da x+6 ta;

x + x -11 + x +6 = 253

3x= 253+ 5

3x= 258

x= 258:3

x= 86; 253-11= 242; 253+6= 259;

Javob: 253 ta; 242 ta; 259 ta.

VI. Darsni mustaxkamlash: 1188-1198 –mashqlar sinfda yechiladi

VII. Uyga vazifa. 1204-1206- mashqlar

Fani: Matematika Sinfi: VI Sana: Dars raqami: 143

I. Darsning mavzusi. Masalalar yechish

II. Darsning maqsadi:

a) Ta'limiy maqsad: o'quvchilar olgan nazariy bilimlarini amaliyotda tatbiq eta olish

b) Tarbiyaviy maqsad: o'quvchi shaxsini kamol toptirish

c) Rivojlantiruvchi maqsad: : O'quvchilarni tenglamalar yechish haqidagi barcha bilimlarini rivojlantirish.

d) Kasbga yo'naltiruvchi maqsad: o'quvchilarni kasbga to'g'ri yo'naltirish

Bilimlar:

- 133-142- darslardagi bilimlar qamrab olinadi

Ko'nikmalar:

- 133-142- darslardagi ko'nikmalar qamrab olinadi

Malakalar:

- 133-142- darslardagi malakalar qamrab olinadi

Kompetensiya turi. Bilimlarni amaliyotda qo'llash

III. Darsni jihozi. Yozuv taxtasi, bo'r ,6-sinf Matematika darsligi,ko'rgazmali qurollar,turli rangdagi kartochkalar

IV. Darsni metodi: Amaliy mashg'ulot

V. Darsni borishi:

1207. O'xshash hadlarni ixchamlang:

1) $5a + 3a + 7a$; 3) $8b - 3b + 7b - 13b$;

2) $-4a - 7a + 10a$; 4) $-1\frac{1}{3}b - 2\frac{2}{3}b + 3b - 1\frac{1}{7}b$.

1) (5+3+7)a= 15a; 3) (8-3+7-13)b= -b;

2) (-4-7+10)a= -a; 4) (-

1208. Qavslarni oching va o‘xshash hadlarni ixchamlang:

1) $2a-(3a-4)+(5a-1)$;

2) $-3(a-3)-(2a+8)+4a$;

3) $0,7(2-b)-(3-2b)+1,1b$;

4) $1\frac{5}{7}\left(7-\frac{7}{12}a\right)-2\frac{2}{3}\left(9-\frac{3}{8}b\right)$.

1) 2a-3a +4 +5a -1= 4a+3;

2) -3a +9 -2a -8 +4a= -a +1;

3) 1,4 -0,7b -3 +2b +1,1b= 2,4b -1,6;

4) 12 –a -24 + b= b-a -12;

1209. Tenglamani yeching:

1) $4(x-3)-3(x+2)=-19$;

2) $2,5(4-2x)-5(1-3x)=5$;

3) $-5(7-x)-4(x-8)=3$;

4) $\frac{2}{3}(3x-1)-\frac{1}{9}\left(9x-2\frac{1}{4}\right)=\frac{1}{4}$.

1) 4x-12 -3x -6= -19

x= -19 +6 +12

x= -1; Javob: x= -1

VI. Darsni mustaxkamlash: 1207-1211 –mashqlar sinfda yechiladi

VII. Uyga vazifa. 1220-1222- mashqlar

Fani: Matematika Sinfi: VI Sana: Dars raqami: 144

I. Darsning mavzusi: 12-Nazorat ishi

II. Darsning maqsadi:

a) Ta’limiy maqsad: O’quvchilar olgan nazariy bilimlarini nazorat qilish

b) Tarbiyaviy maqsad: O’quvchi shaxsini kamol toptirish

c) Rivojlantiruvchi maqsad: O’quvchilarni tenglamalar yechish haqidagi barcha bilimlarini rivojlantirish.

d) Kasbga yo’naltiruvchi maqsad: o’quvchilarni kasbga to’g’ri yo’naltirish

Bilimlar:

- 133-143- darslardagi bilimlar qamrab olinadi

Ko’nikmalar:

- 133-143- darslardagi ko’nikmalar qamrab olinadi

Malakalar:

- 133-143- darslardagi malakalar qamrab olinadi

Kompetensiya turi: Savodxonlik

III. Darsni jihozi: Yozuv taxtasi, bo’r ,6-sinf Matematika “Nazorat ishlari” banki

IV. Darsni metodi: Amaliy mashg’ulot

V. Darsni borishi:

Yozuv taxtasiga quyida berilgan topshiriqlar yozib qo’yiladi va topshiriqlarga izoh beriladi.O’quvchilar qanday yozayotganligini nazorati qilinadi.

Yozma ish № 12

I variant

1.Qavslarni oching va ifodaning qiymatini toping:

23,6 + (14,5 - 30,1) – (6,8 + 1,9).

2.Ifodani soddalashtirib koeffitsiyentni tagiga chizing:

a) $-3\cdot(-7k)\cdot 4p$; b) $-2{,}4m\cdot(-3{,}2)\cdot 5{,}5$; v) $\frac{8}{15}a\cdot\left(-2\frac{1}{2}\right)\cdot\left(-1\frac{1}{2}b\right)$.

3. O'xshash hadlarni ixchamlang: $3x+15y-2x-20y+7x$

4. 3,2 kg arpa unidan 4,48 kg non qilinadi. 28 t non yopish uchun non zavodi qancha unni ishlatadi?

5.Birinchi bakda 55 litr yog' bor, ikkinchisida esa 45 litr. Birinchi bakdan 8 ta shisha idish, ikkinchisidan shunday 6 ta idishni to'ldirishgandan so'ng, baklarda bir xil miqdorda yog' qoldi. Bitta shisha idishga qancha yog' sig'adi?

II variant

1.Qavslarni oching va ifodaning qiymatini toping:

8,7 + (13,7 - 15,2) – (24,6 - 20,1).

2.Ifodani soddalashtirib koeffitsiyentni tagiga chizing:

a) $-5m\cdot(-4n)\cdot 8k$; b) $3{,}8x\cdot(-0{,}35y)\cdot(-4{,}3)$; v) $\frac{9}{16}p\cdot\left(-1\frac{1}{3}\right)\cdot\frac{3}{7}$.

3. O'xshash hadlarni ixchamlang: $8m+14n-9m-15n+7n$

4. 8 ta g'isht teruvchi uyning devorini 42 kunda ko'tarishdi.Shu uyning devorini 28 kunda ko'tarish uchun nechta g'isht teruvchi kerak bo'ladi?

5. Alisherda 900 so'm, Zamirada esa 630 so'm bor edi. Alisher 8 ta konfet, Zamira 5 ta shunday konfet sotib olgandan keyin, ularning pullari teng bo'lib qoldi. Bitta konfet qancha turadi?

VI. Darsni mustaxkamlash.Takrorlash uchun savol va topshiriqlar

VII. Uyga vazifa. Takrorlash uchun savol va topshiriqlar

Fani: Matematika Sinfi: VI Sana: 18.04 Dars raqami: 145

I. Darsning mavzusi. Masalalar yechish.Tarixiy ma'lumotlar

II. Darsning maqsadi:

a) Ta'limiy maqsad: o'quvchilar olgan nazariy bilimlarini amaliyotda tatbiq eta olish

b) Tarbiyaviy maqsad: o'quvchi shaxsini kamol toptirish

c) Rivojlantiruvchi maqsad: : O'quvchilarni tenglamalar yechish haqidagi barcha bilimlarini rivojlantirish.

d) Kasbga yo'naltiruvchi maqsad: o'quvchilarni kasbga to'g'ri yo'naltirish

Bilimlar:

- 143-144- darslardagi bilimlar qamrab olinadi

Ko'nikmalar:

- 143-144- darslardagi ko'nikmalar qamrab olinadi

Malakalar:

- 143-144- darslardagi malakalar qamrab olinadi

Kompetensiya turi. Bilimlarni amaliyotda qo'llash

III. Darsni jihozi. Yozuv taxtasi, bo'r ,6-sinf Matematika darsligi,ko'rgazmali qurollar,turli rangdagi kartochkalar

IV. Darsni metodi: Amaliy mashg'ulot

V. Darsni borishi:

1212. Uchta xususiy korxona mahsulot tayyorlashga buyurtma oldi. Birinchi korxona jami mahsulotning 0,48 qismini, ikkinchi korxona $\frac{1}{5}$ qismini, uchinchisi esa qolgan 320 dona mahsulotni tayyorladi. Har bir xususiy korxona qanchadan mahsulot tayyorlagan?

Yechish: I- korxona 0,48x; II-korxona x; III- korxona Qolgan 320 dona

x- 0,48x- = 320

x-0,48x- 0,2x= 320

0,32x= 320

x= 320:0,32

x= 1000; 1000· 0,48 = 480; 1000· 0,2 = 200;

Javob: 480 dona ; 200 dona ; 320 dona

1213. Bir tadbirkorning bankdagi puli ikkinchisinikidan 3,6 marta ko‘p. Agar birinchi tadbirkor bankdan 9,6 mln so‘m olib, ikkinchisi bankka 84 mln pul o‘tkazsa, ularning bankdagi pullari o‘zaro teng bo‘ladi. Har bir tadbirkorning bankda qancha puli bor?

Yechish: x+84 000000 = 3,6 x- 9600000

3,6x- x= 84 000 000 + 9 600 000
2,6x= 93 600 000
x= 93 600 000 : 2,6
x= 36 000 000 ; 36 000 000 · 3,6 = 129 600 000

Javob: 36 000 000 so’m; 129 600 000 so’m.

VI. Darsni mustaxkamlash: 1212-1219 –mashqlar sinfda yechiladi

VII. Uyga vazifa. 1223-1227- mashqlar

Fani: Matematika Sinfi: VI Sana: 18.04 Dars raqami: 146

I. Darsning mavzusi. Perpendikulyar to’g’ri chiziqlar

II. Darsning maqsadi:

a) Ta’limiy maqsad: o’quvchilarga perpendikulyar to’g’ri chiziqlarni o’rgatish

b) Tarbiyaviy maqsad: o’quvchi shaxsini kamol toptirish

c) Rivojlantiruvchi maqsad: o’quvchilarni geometrik tushunchalar haqidagi barcha bilimlarini rivojlantirish.

d) Kasbga yo’naltiruvchi maqsad: o’quvchilarni kasbga to’g’ri yo’naltirish

Bilimlar:

- Perpendikulyar to’g’ri chiziqlar haqida tushunchaga ega bo’lish

Ko’nikmalar:
- Perpendikulyar to’g’ri chiziqlarga doir masalalrni yecha olish
Malakalar:
- Perpendikulyar to’g’ri chiziqlarga doir masalalrni mustaqil yecha olish
Kompetensiya turi. O’quv-o’rganish

III. Darsni jihozi. Yozuv taxtasi, bo’r ,6-sinf Matematika darsligi,ko’rgazmali qurollar,turli rangdagi kartochkalar

IV. Darsni metodi: Aralash, Guruhlarda ishlash,Bayon qilish
V. Darsni borishi:


1. Perpendikular to‘g‘ri chiziqlar. Siz burchak tushunchasi, yoyiq va to‘g‘ri burchak tushunchalari bilan 5- sinfda tanishgansiz.

45-*a* rasmdagi *a* va *b* to‘g‘ri chiziqlar kesishishidan to‘g‘ri burchaklar hosil bo‘lgan. Bu holda *a* va *b* to‘g‘ri chiziqlar ***perpendikular to‘g‘ri chiziqlar*** deyiladi.

a va *b* to‘g‘ri chiziqlarning perpendikularligi $a \perp b$ (yoki $b \perp a$) kabi belgilanadi.

O‘qilishi: *a* va *b* to‘g‘ri chiziqlar o‘zaro perpendikular.

45



Perpendikular to‘g‘ri chiziqlarda yotgan kesmalar (yoki nurlar) ***perpendikular kesmalar (nurlar)*** deyiladi. Masalan, kvadratning, to‘g‘ri to‘rtburchakning qo‘shni tomonlari perpendikular kesmalardir.

VI. Darsni mustaxkamlash: 1128-1132 –mashqlar sinfda yechiladi
VII. Uyga vazifa. 1241-1243- mashqlar

Fani: Matematika Sinfi: VI Sana:19.04 Dars raqami: 147
I. Darsning mavzusi. Parallel to’g’ri chiziqlar

II. Darsning maqsadi:
a) Ta’limiy maqsad: o’quvchilarga perpendikulyar to’g’ri chiziqlarni o’rgatish
b) Tarbiyaviy maqsad: o’quvchi shaxsini kamol toptirish
c) Rivojlantiruvchi maqsad: o’quvchilarni geometrik tushunchalar haqidagi barcha bilimlarini rivojlantirish.
d) Kasbga yo’naltiruvchi maqsad: o’quvchilarni kasbga to’g’ri yo’naltirish

Bilimlar:
- Parallel to’g’ri chiziqlar haqida tushunchaga ega bo’lish
Ko’nikmalar:
- Parallel to’g’ri chiziqlarga doir masalalrni yecha olish
Malakalar:
- Parallel to’g’ri chiziqlarga doir masalalrni mustaqil yecha olish
Kompetensiya turi. O’quv-o’rganish

III. Darsni jihozi. Yozuv taxtasi, bo’r ,6-sinf Matematika darsligi,ko’rgazmali qurollar,turli rangdagi kartochkalar

IV. Darsni metodi: Aralash, Guruhlarda ishlash,Bayon qilish
V. Darsni borishi:

2. Parallel to‘g‘ri chiziqlar. Bir tekislikda yotuvchi kesishmaydigan ikki to‘g‘ri chiziq ***parallel to‘g‘ri chiziqlar*** deyiladi (45-*b* rasm).

a va *b* to‘g‘ri chiziqlar parallelligi $a \parallel b$ (yoki $b \parallel a$) kabi belgilanadi.

O ‘ q i l i s h i : *a* va *b* to‘g‘ri chiziqlar o‘zaro parallel.

Parallel to‘g‘ri chiziqlarda yotgan kesmalar (yoki nurlar) ***parallel kesmalar (nurlar)*** deyiladi.

Tekislikning berilgan to‘g‘ri chiziqda yotmaydigan har bir nuqtasidan shu to‘g‘ri chiziqqa parallel qilib faqat bitta to‘g‘ri chiziq o‘tkazish mumkin.

Kvadratning, to‘g‘ri to‘rtburchakning qarama-qarshi tomonlari parallel kesmalardir.


VI. Darsni mustaxkamlash: 1232-1240 –mashqlar sinfda yechiladi
2) Parallel to‘g‘ri chiziqlar deb nimaga aytiladi? Rasmda ko‘rsating. Rasmdagi to‘g‘ri chiziqlarning parallelligini parallellik belgisi yordamida yozing.
3) Perpendikular va parallel kesmalarga misollar keltiring.
VII. Uyga vazifa. 1244-1246- mashqlar

Fani: Matematika Sinfi: VI Sana: 19.04 Dars raqami: 148
I. Darsning mavzusi. Koordinata tekisligi
II. Darsning maqsadi:
a) Ta’limiy maqsad: o’quvchilarga koordinata tekisligini o’rgatish
b) Tarbiyaviy maqsad: o’quvchi shaxsini kamol toptirish
c) Rivojlantiruvchi maqsad: o’quvchilarni geometrik tushunchalar haqidagi barcha bilimlarini rivojlantirish.
d) Kasbga yo’naltiruvchi maqsad: o’quvchilarni kasbga to’g’ri yo’naltirish

Bilimlar:
- Koordinatalar tekisligi haqida boshlang’ich tushunchaga ega bo’lish
Ko’nikmalar:
- Koordinatalar tekisligida nuqtalarni tasvirlay olish
Malakalar:
- Koordinatalar tekisligida nuqtalarni mustaqil tasvirlay olish
Kompetensiya turi. O’quv-o’rganish
III. Darsni jihozi. Yozuv taxtasi, bo’r ,6-sinf Matematika darsligi,ko’rgazmali qurollar,turli rangdagi kartochkalar
IV. Darsni metodi: Aralash, Guruhlarda ishlash,Bayon qilish
V. Darsni borishi:

Tekislikda o‘zaro perpendikulyar x va y o‘qlarni o‘tkazamiz. Ularning kesishish nuqtasini O harfi bilan belgilaylik. Bu nuqtani har bir o‘q uchun hisob boshi deb, har bir o‘qda o‘zaro teng birlik kesmani olamiz. Ox o‘qdagi yo‘nalish, chapdan o‘ngga, Oy o‘qdagi yo‘nalish esa «pastdan yuqoriga» bo‘ladi (51- rasm). Bu holda tekislikda xOy to‘g‘ri burchakli koordinatalar sistemasi aniqlangan, deyiladi. Uni fransuz olimi Dekart kiritgani uchun ***Dekart koordinatalar sistemasi*** ham deyiladi.

51




Ox o‘qi ***abssissalar o‘qi***, Oy o‘qi esa ***ordinatalar o‘qi*** deyiladi.

Dekart koordinatalar sistemasi kiritilgan tekislik ***koordinata tekisligi*** deyiladi.


A — koordinata tekisligida olingan ixtiyoriy nuqta bo‘lsin. A nuqtadan Ox va Oy o‘qlariga parallel to‘g‘ri chiziqlar o‘tkazamiz. Ular Ox va Oy o‘qlari bilan, mos ravishda, B va C nuqtalarda kesishadi, deylik (52- rasm).

OB kesma uzunligi x, OC kesma uzunligi y bo‘lsin. x son A nuqtaning ***abssissasi***, y son esa A nuqtaning ***ordinatasi*** deyiladi.

52



53



x va y sonlar jufti A nuqtaning ***koordinatalari*** deyiladi va $A(x; y)$ kabi belgilanadi. Bunda doimo birinchi o‘rinda abssissa, ikkinchi o‘rinda esa ordinata yoziladi.

52- rasmda A nuqtaning abssissasi $x = 4$ ga va ordinatasi $y = 3$ ga teng. Bu holda A nuqtaning koordinatalarini $A(4; 3)$ kabi yoziladi.

Shunday qilib: 1) koordinata tekisligida har bir A nuqtaga sonlar jufti $(x; y)$ mos keladi; 2) ixtiyoriy sonlar jufti $(x; y)$ ni koordinata tekisligidagi biror A nuqtaning koordinatalari deyish mumkin; 3) agar $x \neq y$ bo‘lsa, u holda $(x; y)$ va $(y; x)$ juftliklar koordinata tekisligida turli nuqtalarni ifodalaydi.

Koordinata boshi — O nuqtaning koordinatalari $O(0; 0)$ dan iborat. Ox o‘qidagi ixtiyoriy B nuqtaning koordinatasi $B(x; 0)$; Oy o‘qidagi ixtiyoriy C nuqtaning koordinatasi $C(0; y)$ ko‘rinishida bo‘ladi.

VI. Darsni mustaxkamlash: 1247-1250 –mashqlar sinfda yechiladi
VII. Uyga vazifa. 1261-1262- mashqlar

Fani: Matematika Sinfi: VI Sana: 21.04 Dars raqami: 149

I. Darsning mavzusi. Mashq yechish.
II. Darsning maqsadi:
a) Ta’limiy maqsad: o’quvchilar olgan nazariy bilimlarini amaliyotda tatbiq eta olish
b) Tarbiyaviy maqsad: o’quvchi shaxsini kamol toptirish
c) Rivojlantiruvchi maqsad: o’quvchilarni geometrik tushunchalar haqidagi barcha bilimlarini rivojlantirish.
d) Kasbga yo’naltiruvchi maqsad: o’quvchilarni kasbga to’g’ri yo’naltirish
Bilimlar:
- Koordinatalar tekisligi haqida boshlang’ich tushunchaga ega bo’lish
Ko’nikmalar:
- Koordinatalar tekisligida nuqtalarni tasvirlay olish
Malakalar:
- Koordinatalar tekisligida nuqtalarni mustaqil tasvirlay olish
Kompetensiya turi. Bilimlarni amaliyotda qo’llash
III. Darsni jihozi. Yozuv taxtasi, bo’r ,6-sinf Matematika darsligi,ko’rgazmali qurollar,turli rangdagi kartochkalar
IV. Darsni metodi: Amaliy mashg’ulot
V. Darsni borishi:

Ox va *Oy* o‘qlar tekislikni to‘rtta burchakka bo‘ladi, ular *koordinata choraklari* (yoki *koordinata burchaklari*) deyiladi.

Koordinata choraklarining joylashishi 53- rasmda tasvirlangan.

Quyidagi munosabatlar o‘rinli:

I chorakdagi nuqtalarning $(x; y)$ koordinatalari uchun $x > 0;\ y > 0;$

II chorakdagi nuqtalarning $(x; y)$ koordinatalari uchun $x < 0;\ y > 0;$

III chorakdagi nuqtalarning $(x; y)$ koordinatalari uchun $x < 0;\ y < 0;$


IV chorakdagi nuqtalarning $(x; y)$ koordinatalari uchun $x > 0;\ y < 0.$

Nuqta koordinatalarining choraklardagi ishoralari ramziy ravishda 53- rasmda ko‘rsatilgan.

Ox o‘qida yotuvchi barcha nuqtalarning ordinatalari 0 ga teng: $y = 0.$

Oy o‘qida yotuvchi barcha nuqtalarning abssissalari 0 ga teng: $x = 0.$

54



1251. 54- rasmda tasvirlangan nuqtalarning koordinatalarini yozing. Ularning abssissalari va ordinatalarini ayting.

(1;4) ; (2;3) ; (3;2) ; (5;1) ; (2; -1,5) ; (-2; -1) ; (-3;1) ; (-3; 3)

VI. Darsni mustaxkamlash: 1251-1255 –mashqlar sinfda yechiladi

VII. Uyga vazifa. 1263-1264- mashqlar

Fani: Matematika Sinfi: VI Sana: Dars raqami: 150

I. Darsning mavzusi. Mashq yechish.

II. Darsning maqsadi:

a) Ta'limiy maqsad: o'quvchilar olgan nazariy bilimlarini amaliyotda tatbiq eta olish

b) Tarbiyaviy maqsad: o'quvchi shaxsini kamol toptirish

c) Rivojlantiruvchi maqsad: o'quvchilarni geometrik tushunchalar haqidagi barcha bilimlarini rivojlantirish.

d) Kasbga yo'naltiruvchi maqsad: o'quvchilarni kasbga to'g'ri yo'naltirish

Bilimlar:

- Koordinatalar tekisligi haqida boshlang'ich tushunchaga ega bo'lish

Ko'nikmalar:

- Koordinatalar tekisligida nuqtalarni tasvirlay olish

Malakalar:

- Koordinatalar tekisligida nuqtalarni mustaqil tasvirlay olish


Kompetensiya turi. Bilimlarni amaliyotda qo'llash

III. Darsni jihozi. Yozuv taxtasi, bo'r ,6-sinf Matematika darsligi,ko'rgazmali qurollar,turli rangdagi kartochkalar

IV. Darsni metodi: Amaliy mashg'ulot


V. Darsni borishi:

1254. (–3; 4) va (2; –1) nuqtalar orqali o'tuvchi to'g'ri chiziq chizing. Bu to'g'ri chiziq qaysi choraklardan o'tadi?




Javob: I , II va IV choraklardan o'tadi.

1255. 1) Faqat ikkita choraklardan o'tuvchi to'g'ri chiziqlar chizing.
2) To'g'ri chiziq faqat bitta chorakda yotishi mumkinmi?



2) Javob: Mumkin emas

1257. Koordinatalar tekisligida uchlari:
1) $A(1; 1)$, $B(3; 1)$, $C(1; 5)$; 2) $M(0; 0)$, $N(2; 0)$, $K(5; 6)$;
3) $P(2; 2)$, $Q(5; 2)$, $L(3; 6)$ nuqtalarda bo'lgan uchburchaklar yasang. Uchburchaklarning turini aniqlay olasizmi?



x

1) Javob: O’tkir burchakli 

VI. Darsni mustaxkamlash: 1254-1260 –mashqlar sinfda yechiladi

VII. Uyga vazifa. 1265-1267- mashqlar

Fani: Matematika Sinfi: VI Sana: Dars raqami: 151

I. Darsning mavzusi. Ustunli diagrammalar

II. Darsning maqsadi:

a) Ta’limiy maqsad: o’quvchilarga ustunli diagrammalar qurishni o’rgatish

b) Tarbiyaviy maqsad: o’quvchi shaxsini kamol toptirish

c) Rivojlantiruvchi maqsad: o’quvchilarni geometrik tushunchalar haqidagi barcha bilimlarini rivojlantirish.

d) Kasbga yo’naltiruvchi maqsad: o’quvchilarni kasbga to’g’ri yo’naltirish

Bilimlar:

- Ustunli diagrammalar haqida tushunchaga ega bo’lish

Ko’nikmalar:

- Ustunli diagrammalar qura olish

Malakalar:

- Ustunli diagrammalarni mustaqil qura olish

Kompetensiya turi. O’quv-o’rganish

III. Darsni jihozi. Yozuv taxtasi, bo’r ,6-sinf Matematika darsligi,ko’rgazmali qurollar,turli rangdagi kartochkalar

IV. Darsni metodi: Aralash, Guruhlarda ishlash,Bayon qilish

V. Darsni borishi:

Turli kattaliklarni o‘lchash natijasida hosil qilingan sonlarni, olingan ma’lumotlarni, ulardan tuzilgan jadvalni yaqqol tasavvur etish, ulardan amaliyot uchun xulosalar chiqarishda ***diagrammalar***dan foydalaniladi.

Diagrammalar uch xil bo‘lishi mumkin: *doiraviy*, *chiziqli va ustunli*. Doiraviy diagramma bilan 5-sinfda tanishgansiz.

Masala. 6- sinfda matematika bo‘yicha o‘tkazilgan yozma nazorat ishi natijalari quyidagi jadval ko‘rinishida berilgan:


Baholar	«5»	«4»	«3»	«2»
O‘quvchilar soni	6	11	17	2


Masaladagi ma’lumotlarni ***ustunli diagramma*** ko‘rinishida ifodalaylik.

Asoslari o‘zaro teng, balandliklari esa berilgan 6, 11, 17, 2 sonlarga mos to‘g‘ri to‘rtburchaklar chizamiz (55- rasm). Hosil bo‘lgan chizma ustunli diagrammani tashkil qiladi.

Ustunli diagrammadan tashqari yana chiziqli diagramma ham bor. Endi masaladagi ma’lumotlarni ***chiziqli diagramma*** ko‘rinishida ifodalaylik.

